



THE IMPORTANCE OF THE EMBASSY OF S. I. NOSOVICH IN THE DIPLOMATIC RELATIONS OF THE RUSSIAN EMPIRE WITH THE EMIRATE OF BUKHARA IN THE 1870S

D. Z. Boratov

researcher

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Russian Empire, Bukhara Emirate, state, diplomacy, S. I. Nosovich.

Received: 30.11.24

Accepted: 02.12.24

Published: 04.12.24

Abstract: This article examines the changes that occurred in the diplomatic relations of the Russian Empire with the Emirate of Bukhara since the 1870s as a result of the emirate's transformation into a dependent state, and the embassy of S. I. Nosovich was selected as the main object. In addition, along with a deep scientific analysis of diplomatic etiquette related to Russian-Bukhara embassy relations, the importance of officials, representatives of the dynasty, and local officials of the Emirate of Bukhara in relations with the Russian Empire is also analyzed.

XIX ASR 70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING BUXORO AMIRLIGI BILAN DIPLOMATIK ALOQALARIDA S. I. NOSOVICH ELCHILIGINING AHAMIYATI

D. Z. Boratov

tayanch doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Buxoro amirligi, davlat, diplomatiya, S. I. Nosovich.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning 70-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi bilan olib borgan diplomatik aloqalarida amirlikning tobe davlatga aylanishi natijasida yuz bergan o'zgarishlar tadqiq etilgan bo'lib, asosiy obyekt sifatida S.I.Nosovich elchiligi tanlab olingan. Shuningdek, Rossiya-Buxoro elchilik aloqalariga oid diplomatik etiketlar chuqur

ilmiy tahlil etilishi bilan birgalikda Rossiya imperiyasi bilan aloqalarda Buxoro amirligi rasmiylari, sulola vakillari va joylardagi amaldorlarning ahamiyati ham tahlil qilinadi.

ЗНАЧЕНИЕ ПОСОЛЬСТВА С. И. НОСОВИЧА В ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СНОШЕНИЯХ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ С БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ В 70-Е ГОДЫ XIX ВЕКА

Д. З. Боратов

поддержка докторанта

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Российская империя, Бухарский эмират, государство, дипломатия, С. И. Носович.

Аннотация: В данной статье изучены изменения, произошедшие в дипломатических отношениях Российской империи с Бухарским эмиратом с 70-х годов XIX века в результате превращения Эмирата в подчинённое государство, и выбрано посольство С.И.Носовича. как основной объект. Также, наряду с углубленным научным анализом дипломатического этикета, связанного с российско-бухарскими посольскими отношениями, анализируется значение чиновников Бухарского эмирата, представителей династий и местных чиновников в отношениях с Российской империей.

Asosiy qism

XIX asrning 70-yillariga kelib Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi diplomatik aloqlarning umumiy mazmuni 1870-yil 23-iyulda amir Muzaffar tomonidan Turkiston general gubernatoriga yuborilgan xatda o'z aksini topadi. Ushbu xatga ko'ra, amirlik tomonidan Peterburgga tashkil etilgan Najmiddin Xoji Sudur va Musobek yetakchiligidagi yorliqlarga ega bo'lgan guruhlarining Orenburgdan o'tkazilmasligi Buxoro hukumatini ranjitgan. Qolaversa amir imperiya qudratli va ulkan hududga ega ekanligini e'tirof etib harbiy yurishlar natijasida egallangan ayrim hududlarni qaytarilishini so'ragan edi. Bu holat esa endilikda Buxoro amirligi o'zaro harbiy qarama-qarshilikdagi yo'qotishlarni faol diplomatik aloqalar orqali tiklashga harakat qilayotganligini ko'rsatib beradi.

Ma'lumki, Turkiston General gubernatorligi tuzilganidan so'ng ham Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi bilan diplomatik aloqalari yangi bosqichda davom etdi. Ushbu davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar 1868-yilda imzolangan shartnomaga asosan ikki mustaqil davlat

sifatida olib borilgan. Shundan elchilik aloqalaridan biri bu 1870-yilda amalga oshirilgan missiya edi. Mazkur elchilik 1869-1870-yillarda Buxoro amirligi tomonidan Toshkent va Peterburgga yuborilgan elchilikka javoban amalga oshirilgan edi. Bu esa bizga Rossiya imperiyasi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi diplomatik an'analar davom etib borganligini ko'rsatadi. 1870-yil 1-aprelda Turkiston general gubernatori fon Kaufman Buxoroga elchilik guruhini yuborish harakatini boshlaydi. Bu elchilikka esa polkovnik S.I.Nosovich rahbar etib tayinlanadi. Boshqa elchilik guruhlari singari bu guruh ham turli soha vakillaridan va muayyan harbiy qismdan tashkil topgan edi. guruh 5 nafar ofiser va davlat amaldorlari shuningdek, 50 nafar otliq kazaklar hamroxligida yo'lga o'tlanishadi. Elchilikning asosiy vazifalari sifatida quyidagi ikki jihat belgilab berilgan edi:

- Buxoro amiriga Turkiston general gubernatorining o'zaro do'stona munosabatlardan manfaatdor ekanligini bildirish;

- Buxoro bilan savdo va siyosiy aloqalarni mustahkamlash.

Ushbu elchilik guruhi a'zolaridan biri bo'lgan L.F.Kostenko o'z etaliklarida yozishicha, 1870-yilga qadar butun XIX asr davomida Buxoroga 4 marta Rossiya imperiyasi elchilari yuborilgan bo'lib, birinchi 1819-1820-yillarda amalga oshirilgan Negri hamda Meyendorf elchiligi, ikkinchi 1841-yilda amalga oshirilgan Butenov, Leman va Xanikov elchiligi, uchunchi 1859-yilda amalga oshirilgan Ignatyev elchiligi va to'rtinchi 1865-1866-yillarda amalga oshirilgan Struve va Gluxovskiy elchiliklari hisoblanar edi.

O'z fikrlarini davom ettirar ekan Kostenko, o'zi ishtirok etgan elchilikka qadar amalga oshirilgan barcha urinishlarda rus elchilari ko'zlangan maqsadlariga erishmaganliklarini va Buxoro davlati bilan muvaffaqiyatli muloqotni yo'lga qo'yishning o'zi murakkab vazifa ekanligini aytib o'tadi.

Tayinlangan guruh a'zolari Samarqandda yig'ilishadi va yo'lga o'tlanishadi. Bundan xulosa qilish mumkini, general gubernatorlik tomonidan imperiya nomidan yuboriluvchi elchilik harakatlarida muayyan joy belgilab olinar va shu joyda barcha a'zolar to'planib keyinchalik birgalikda yo'lga harakatlanishar edi.

Bu davrda General gubernatorlik tuzilib amirlikning ayrim yirik shaharlari jumladan Samarqand ham imperiya tasarrufiga o'tishi bilan amirlik chegaralarida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bu esa Rus elchilarining Samarqand hududi orqali o'tishlari go'yoki Rossiya imperiyasi hududi orqali harakat qilishlariga teng edi. Keyinchlik elchilik guruhi a'zolari marshruti Kattaqo'rg'on hududi orqali o'tib Ziyovuddin bekligi bilan bog'lanadi. Aynan mazkur beklilik orqali Buxoro sari harakatlanayotgan elchilar amirlikning rasmiy va mahalliy vakillari bilan uchrashuvlarni boshlab yuborishgan edi.

Bu holatda Ziyovuddin bekligi begi rus elchilarini yaxshi kutib olishga harakat qiladi. Elchilar uchun o'zining shohona turar joyidan maxsus xona ham ajratib beradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Buxoro amirligining mahalliy vakillari ham elchilik aloqalariga jiddiy yondashishar bu masalaga o'zlarini mas'ul sifatida ko'rishar edi. Elchilar bekilikka yetib kelishlari bilan ertasi kuni tongda bek tomonidan elchilarga maxsus sovg'a salomlar yuboriladi. Bu sovg'alar orasida qimmatbaho matolar, Buxoroning mashhur otlaridan 2 bosh egarlangan holatda taqdim etilganlini takidlab o'tish o'rinlidir. Missiya rahbari ham bekka o'zining kumush soati va bir necha boshqa anjomlarini tuhfa qiladi. Bu esa diplomatik aloqalarning ajralmas qismi bo'lgan o'zaro sovg'alar almashinish holati mahalliy vakillar va elchilik guruhi a'zolari o'rtasida ham yo'lga qo'yilganlini ko'rsatadi.

Rossiya imperiyasidan Markaziy Osiyoga yuborilgan elchilar nafaqat o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bevosita bajarishgan, balki ayni vaqtda Peterburgning ushbu hududdagi harbiy harakatlarini mahalliy xalq uchun ijobiy xususiyat kasb etganligini "tekshirish" bilan ham shug'ullanishgan. Xususan, 1870-yil 6-mayda Samarqand shahriga yetib kelgan S.I.Nosovich shaharning imperiyaga qo'shib olingandan keyin mavjud madrasa o'rnida aholi uchun shifoxona hamda maktab qurilganligini takidlaydi. Qolaversa, "Kinesa" deb atalgan yahudiy sinagogasi atrofida joylashgan yahudiylar kvartaliga tashrifi davomida bu toifa kishilarini xoloskorlari ruslar ekanligini e'tirof etadi. Albatta, diplomat o'zining ushbu harakatlari orqali Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga harbiy va diplomatik usullar orqali yaqinlashi ijobiy natijalarga olib kelishini ko'rsatishni maqsad qilgan. Qolaversa, elchilik aloqalari jarayonida yana bir narsa ahamiyatliki, elchilar Buxoro amirligining hududiga kirib borishgach har doim ham muayyan mahalliy amaldorlarga tegishli binolarda to'xtashmagan. Bu holatda amirga tegishli muayyan joylarda to'xtashlari va tunab qolishlari mumkin bo'lgan. Mazkur holat ushbu elchilik a'zolari bilan ham yuz beradi, ular Karmana qal'asidan 3 verst uzoqlikga joylashgan amir yoshligida o'zi parvarishlagan bog'da yuz bergan edi.

Elchilik masalalariga amirlik tomonidan ham jiddiy qaralgan elchilik uchun yuboriladigan va elchilar bilan suhbat jarayonlarida mulohazali va so'zga e'tiborli odamlarni tayinlash kerakliga amal qilingan. Buxoro-Rossiya munosabatlarida elchilik aloqalariga oid materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, imperiya elchilari Buxoroga tashriflari davomida faqatgina o'z zimmalariga yuklatilgan muhim vazifalarni bajarish bilangina cheklanib qolmasdan, mahalliy aholi, ularning turmush tarzi, bozor va savdo munosabatlarini ham o'rganishga harakat qilishgan. Shuningdek, sharq arxitektura namunalari va ziyoratgohlarni ham o'rganishga harakat qilishgan. 1870-yil 23-may kuni elchilik a'zolari Bohovuddin Naqshband qabrini ham ko'zdan kechirishganligi yuqoridagi fikrlarga asos bo'la oladi.

Buxoro shahriga kirib borgan elchilar amirlik bosh vaziri hisoblanuvchi Qushbegi nomidan tashrif buyurgan vakil bilan uchrashishadi. Bosh vazir o'z nomidan yuborgan vakil orqali bir qancha sovg'a salomlar taqdim qiladi. Ular orasida egarlangan ot, 3 ta chopon va qimmatbaho matolarni ko'rish mumkin. Bu holat ham Rossiya-Buxoro munosabatlarida tashrif buyuruvchi elchi bilan amirlik vakillari o'z nufuziga ko'ra bosqichma-bosqich munosabatlarga kirishish odati mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Shakllangan diplomatik an'analarga ko'ra elchilar mamlakatga tashrif buyurgach ularni hukmdor qabul qilish uchun aniq vaqt belgilanadi. Ammo ushbu elchilik poytaxtga yetib kelgach ularning oldiga amirning maxsus vakili miraxur kelib amir mazkur xurmatli elchilarni o'zalari istagan va ular uchun qulay bo'lgan vaqtda qabul qilishga tayyor ekanligini aytadi. Qolaversa, o'zlari uchun qiziq bo'lgan joylashga tashrif buyurishlari va shahar aylanishlari mumkin ekanligi bunda rasmiy tadbirlarga javobgar shaxs ya'ni shig'avul ularga hamrohlik qilishini ham yetkazadi. Bu ham ikki davlat o'rtasidagi elchilik aloqalarining yangi bosqichi boshlanganligini ko'rsatadi. Chunki imperiya tomonidan Markaziy Osiyo hududlari egallanguncha qabul qilingan rus elchilariga qat'iy talablar qo'yilar edi. Buni tadqiqot doirasida o'rgangan N.P.Ignatyev elchiligida yaqqol ko'rgan edik.

Buxoro hukmdorlari imperiya elchilari tashrif buyursa ularga o'z qo'shinlarining harbiy qudratini ham ko'rsatib qo'yishga harakat qilishgan. Bu 1870-yilgi elchilikda ham ko'rish mumkin. 24-may kuni erta tongda elchilar nogo'ralar ovozidan uyg'onib ketishadi. Keyinchalik ma'lum bo'ladiki, amirlik qo'shinlari harbiy mashg'ulot o'tashni boshlashgan. Ular nog'oralar chalishar va kamondan nishonga otish amaliyotini bajarishar edi. Qabul marosimlari ham o'ziga xos bo'lib, elchilar shig'avul homrohligida maxsus saf holatida amir joylashgan qal'a tomon borishadi. Shuningdek, safning eng avvalida kazak otliqlari general-gubernator tomonidan amirga taqdim etilgan sovg'a-salomlarni olib borishgan. Ular orasida kumush serviz (idishlar to'plami), xronometr, ulkan shamdon, qimmatbaho muvut va musiqali quti kabilarni ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda ham mamlakatimiz diplomatiyasiga xos xususiyatlardan biri bu "faxriy qoravul" saf tortishi va xorijdan kelgan davlat rahbarlariga va mamlakat rahbariga murojaatidir. Bu holat Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarda ham yuz bergan. Elchilar amir joylashgan qal'aga yetib kelishgach maxsus yo'lak orqali yurishlari talab etilar edi. bunda yo'lakning har ikki tomonida yosh sarbozlar saf tortishgan bo'lib, elchilar yaqinlashishlari bilan rus tilida sarbozlarga "Слушай на кра-уль" komandasi beriladi. Bu holat elchilarni ajablantirishi bilan birga siyosiy jihatdan imperiyaga yon bosishni anglatadi.

Qabul jarayoning so‘nggi qismlaridan biri bu amirga tashrif buyurgan elchilarni rasmiy tanishtiruv jarayoni hisoblangan. Bu jarayondan Buxoro rasmiylaridan xudaychi va shig‘aul mas‘ul bo‘lib ular elchilarni birma bir tanishtirib, amir esa ular bilan qo‘l berib ko‘rishgan. Salomlashish davomida elchilarga esa “aman” (elchilar naznida bu jumla “assalomu-alaykum” ma‘nosida qo‘llanilgan) jumlasini ishlatgan. Keyinchalik elchilar amirdan 5 qadam uzoqlikda yarim doira shaklda o‘tirishadi. Muzokaralar oldidan zalda 10 nafar rus ofiseri, elchilar ortida amirlik bosh vaziri qushbegi, eshik oldida 3 nafar qabul marosimlariga mas‘ul saroy amaldorlari qatnashishgan.

Rossiya imperiyasi bilan o‘zaro diplomatik munosabatlarda muzokaralar ham aniq shakllangan bosqichlarda amalga oshirilgan. Buni ushbu muzokarada ham ko‘rib o‘tish mumkin. Muloqot avvalida amir rus podshosi va Turkiston general gubernati sog‘ligi haqida so‘rab, elchilar Buxorodagi qabul jarayonida mamnun bo‘lishganligi haqida so‘raydi. Shundan so‘ng elchilar yetakchisi S.I.Nosovich elchilikdan ko‘zlangan maqsad general gubernatorning Buxoro bilan do‘stlik an‘analarini saqlab qolish istagini yetkazish ekanligini ma‘lum qiladi. Muzokaralar davomida amir qo‘llagan yana bir jumla bu “Xo‘p yaxshi” birikmasi bo‘lib u elchining gaplarini tushunganligini va bu gaplardan mamnun ekanligini anglatgan.

Qabul va dastlabki muzokaralar tugagach elchilarga xonalari korsatilgan. Amirga taqdim etilgan sovg‘a salomlarga javoban amir nomidan elchilarga bir juftdan chopon sovg‘a qilingan. Amirlik hukumati tomonidan elchilarda iliq taasurot qoldirish uchun imkon qadar ahamiyat berilgan. Bu yo‘lda turli usullardan ham foydalanishga harakat qilingan. Shunday voqealardan biri qabul tugagach sodir bo‘lgan edi. elchilar joylashgan xonaga amirlik vakillaridan biri 14 nafar rus savdogarlarini boshlab keladi. Savdogarlar o‘zlarining Buxorodagi faoliyatlaridan mamnun ekanliklari, ularga hech qanday tazyiq o‘tkazilmayotganligi va barcha musulmon savdogarlari kabi 2,5 % miqdoridagi zakot solig‘ini to‘lab kelayotganliklarini bildirashadi. Bu ham elchilarda yaxshi taasurot qoldirish va 1868-yilgi shartnomaga to‘liq amal qilinayotganligini isbotlashga urinishlardan biri deb hisoblash mumkin. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, imperiyaning Markaziy Osiyoda amalga oshirgan harbiy harakatlaridan so‘ng diplomatik munosabatlarda teng huquqlilik yo‘qolib borayotganligini ko‘rsatadi.

Yana bir jihat muhimki, elchilar bilab o‘zaro muloqotda amirlikning bosh vaziri hisoblangan Qo‘shbegi faol qatnashgan. Elchilar Buxoroga tashriflarining uchunchi kuni shahar bo‘ylab aylanishadi. Bundan xabar topgan bosh vazir S.I.Nosovichga xat yo‘llab o‘zining bir necha fikrlarini ma‘lum qiladi. Xatda Buxoroda turli kayfiytdagi kishilar mavjud ekanligi agarda elchilari o‘zlari shahar bo‘ylab harakatlanishsa ularga biror ko‘ngilsizlik yuz berishi mumkinligi, shuning uchun ular bosh vazirga safar oldidan xabar berishlari bosh vazir esa ularga

o'z odamlari bilan hamrohlik qilishini ma'lum qiladi. Bundan ham xulosa qilish mumkinki, amirlik rasmiylari elchilarni imkon qadar shahar hayoti bilan tanishishlarini oldini olishga urinishgan.

Bosh vazirning 30-may kuni elchilar bilan muzokaralar olib borishi uning mamlakat tashqi siyosatidagi ta'siri kuchli bo'lganligini ko'rsatadi. Bosh vazir bilan muzokaralarda elchilar faqat bir narsadan ya'ni ularni erkin shahar aylanishga imkon berilmayotganligidan shikoyat qilishadi. Shuningdek ular amir Muzaffarning o'g'li Abdul Fattohxon Toshkent va Peterburgga 1868-1869-yillarda qilgan elchilik faoliyati davomida unga barcha imtiyozlar yaratib berilganligini ham takidlashadi. Ushbu muzokaralar davomida elchilik rahbari S.I.Nosovichning ham siyosiy yetukligi seziladi. U bosh vazirdan agarda amirlik ularga shahar bo'ylab aylanishga ruxsat bersa, o'zining eng mashhur binolarini ko'rsatsa va nihoyat armiya bilan tanishtirsa mamnun bo'lishini va Toshkentga qaytgach general gubernatorga o'zini Buxoroda do'stona muhitda bo'lganligini aytishini ma'lum qiladi. Bu orqali rus elchisi yumshoq ohangda ultimatum qo'yganligi ko'rinadi.

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasiga o'rtasidagi elchilik aloqalarining yana bir muhim jihati bu agarda elchi bilan davlat amaldori o'zaro muzokaralar o'tkazsa, u holda o'zaro muloqot to'liq yozma shaklda hukmdorga taqdim etiladi. Bu holar S.I.Nosovich va bosh vazir o'rtasidagi muloqotda ham o'z aksini topadi. Elchining yuqoridagi talabidan so'ng bosh vazir o'z kotibini chaqirib ularning mulaqotini yoaib borishni buyuradi va yakunda elchiga o'qib eshittirib yozilganlarning barchasi to'g'ri ekanligini og'azki tasdiqlatgan holda amirga taqdim etishini aytadi. Shu tariqa amirlikning eng yuqori amaldori va elchi o'rtasidagi muzokaralar tugaydi.

Elchilik tarkibida bo'lgan vakillardan birining yozishicha, bosh vazir bilan o'zaro muzokaralardan so'ng amirning javobi bir necha kun davomida ham elchilarga ma'lum qilinmaydi. Aksincha ularni doimiy kuzatish uchun Arslon xo'ja ismli vakil tayinlanib, uning asosiy vaziyasi elchilari nima bilan band ekanliklarini doimiy kuzatish va bu haqida oliy hokimyatga xabar berib turish hisoblangan. Bulardan xulosa qilish mumkinki, garchi amirlik hukumati tomonidan elchilarni kutib olishga ularda yaxshi taasurot qoldirishga harakat qilinmasin amalda esa amirlikdagi real vaziyat haqida elchilarning o'rganishlariga qarshi bo'lishgan.

Uzoq kutishlardan so'ng 7-iyunda amir o'zining ishonchli vakili hisoblangan, Abdul Fattoh bilan birgalikda Peterburgda bo'lgan sobiq kotib Mir Axmat orqali elchining talablariga o'z javoblarini ma'lum qiladi. Amir xabarini yetkazar ekan Mir Axmat muqaddas Buxoro shahrida xorijdan kelgan boshqa din vakillarining otda musulmonlardan balandda yurishi mumkin emasligini yetkazadi. Amirning bu javobini eshitgan elchilar amir ushbu javobi yozma

tarzda berishini elchilar esa uni o'zlari bilan olib ketib general gubernatorga yetkazishlarini aytishadi. Bu kabi o'zaro munosabatlarni oldini olish uchun amirlik hukumati tomonidan qandaydir yechim topilishi talab etilar edi. Shunday vaziyatda ertasi kuni elchilar joylashgan bog'ga maxsus musiqachilar va qo'shiq ijrochilari yuboriladi. Aytish mumkinki, amir hukumati turli yo'llar bilan bo'lsada elchilarni ko'nglini ko'tarish shu bilan birga ularning talablarini bajarmaslikka harakat qilishgan.

Ushbu voqealardan so'ng 17-iyunda rus elchilari Buxorodan ketishga hozirlik ko'rishadi. Ular jo'nashidan avval amir saroyidan vakil kelib, amir nomidan quyidagicha tuhfalarni taqdim qiladi:

- Elchilar rahbari S.I.Nosovichga egarlangan ot, 3 ta chopon va 2 ming tanga(400 rubl);
- Ofiser va amaldorlarga 2 tadan chopon va 400 tanga (80 rubl);
- Quyi darajadagi elchilik a'zolariga 1 tadan chopon va 40 tanga (8 rubl).

Ushbu holatda ham rus elchilari elchilik jarayonida pul olish ularning diplomatik an'alariga mos emas ekanligini aytib pul qabul qilishdan bosh tortishadi. Bu holatni Afg'oniston bilan aloqalarda ham ko'rish mumkin. Ammo amirlik vakillari ularga pul taqdim qilish Buxoro amirligidan do'stlik ramzi ekanligini aytib qabu; qildirishga erishadilar.

Shuningdek, jo'nash oldidan elchilar amir qabulida ham bo'lib, qabulda bo'lgani kabi rasmiy munosabatga kirishishadi. Elchilar rahbari amirga tantanali qabul va e'tibor uchun minnatdorlik izhor etadi. O'z navbatida elchi Buxoro amiri ikki qo'shni davlat o'rtasidagi do'stlik aloqalarini saqlab qolish uchun hech qanday qoidabuzalikka qo'l urmasligiga ishonishini aytadi. Amir esa jarayonlardagi ayrim kamchilikni to'g'ri tushunishlarini so'raydi.

E'tiborli jihati shundan iboratki amir bilan xayrlashuv muzokaralari tugagach, uning o'g'li Abdul Fattoh ham o'z navbatida elchilarni o'z qarorgohiga taklif qiladi. Elchi bilan uchrashuvda amirlik bosh vaziri ham qatnashgan bo'lib, shag'zoda elchilardan general gubernatorga modomiki amir Muzaffar hukmron ekan Rossiya bilan munosabatlarga putur yetkazuvchi biror xatti xarakat qilmasligi haqida yetkazishlarini so'raydi. Bu holat ham ikki tomon o'rtasidagi diplomatiyaning o'ziga xos jihatlaridan biri edi. Ya'ni amirning taxt vorislari ham hali hukmdor bo'lmasdanoq imperiya bilan muloqotga kirishish va do'stona aloqlar o'rnatishga harakat qilishgan. Shu tariqa 18-iyun kuni shig'aul kuzatuvida S.I.Nosovich boschiligidagi elchilar Buxoro amirligidan chiqib ketishadi va ularning 27 kunlik elchiliklari o'z nihoyasiga yetadi. Shu tariqa XIX asrning 70-yillariga kelib Rossiya-Buxoro munosabatlarida yangi davr-o'zaro noteng munosabatlarga asoslangan elchilik aloqalari boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахмад Даниш. Наводир ул-вакое (Редкостное происшествие). –Т.: Наука, 1964. – 411 с.
2. Сергеев Е.Ю. Большая игра, 1856-1907: мифы и реалии российско-британских отношений в Центральной и Восточной Азии. –М.: Товарищество научных изданий КМК, 2012. - 454 с.
3. Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – СПб., 1915. – 225 с.
4. Игнатъев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 году. –СПБ.: Государственная типография, 1897. – 278 с.
5. Кличев О.А., Особенности приема посольств Российской империи в Бухарском эмирате во второй половине XIX в.//Россия и мусульманский мир. 2020. № 1.-99-114 с.
6. Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 году. – СПб., 1871. – 113 с.
7. Терентеев М.А. История завоевания Средней Азии. –СПБ.: тип. В.В.Камарова, 1903. -479 с.
8. Холикова Р. Бухоро-Россия: тарих чорраҳасида (XIX аср иккинчи ярми — XX аср бошлари). - Т.: O‘qituvchi НМИУ, 2005. -240 б.
9. Яворский И.Л. Путешествие Русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 годах. – СПб., 1882. - 792 с.
10. Morrison A. The Russian Conquest Of Central Asia: A Study In Imperial Expansion, 1814–1914. Cambridge University Press, 2021. -641 p.